


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



AREAL LINGVISTIKA

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili)

Toshkent – 2018

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashtiruvchi Kengashning 201~~1~~ yil "21" ~~11~~ dagi ~~5~~ -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 201~~1~~ yil "2" ~~12~~ dagi ~~1000~~ - sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Enazarov T. ToshDO'TAU professori, filologiya fanlari doktori

Taqribchilar:

Omonov Q. Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti Sharq filologiyasi fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori

Abdushukurov B. ToshDO'TAU O'zbek va adabiyotini o'qitish fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (201~~1~~-yil "22" avgustdaggi ~~1~~ sonli bayonnomasi).

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limgagini o'rni

Ushbu dastur 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishining 3-kursining 6-semestrida o'tish uchun uchun mo'ljallangan. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydag'i "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi farmoniga muvofig o'zbek shevalari milliy qadriyatlar tizimining bir bo'lagi sifatida hamma vaqt o'rganilishi va tadqiq etilishi lozim.

"Areal lingvistika" magistrantlarda adabiy til va sheva, shevalarimizning tarqalishi, ularni o'rganishda lingvogeografiya metodidan foydalana olish nuqtayi nazaridan sheva materiallarini tahlil qilishga doir muayyan bilimga ega bo'lish va ularni amaliyotda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita amaliy va ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda amaliy jihatdan alohida ahamiyat kash etadi.

"Areal lingvistika" 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishining asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fan "O'zbek dialektologiyasi", "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "O'zbek tili tarixi", "O'zbek xalq og'zaki ijodi" fanlari bilimlariga asoslanib ish ko'radi va aksincha, ushbu fanlar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga "Areal lingvistika" fanining asosiy tushunchalari va uning nazariy hamda amaliy asoslari, shuningdek, ham nazariy, ham amaliy muammolari haqida tushuncha berish va zarur sharoitlarda ulardan amalda foydalananish malakasini shakllantirish. Olingan bilimlar yordamida shevaga oid xarita ma'lumotlarini tahlil qilishning zaruriy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat.

Areal lingvistika fani bo'yicha magistrant areal tilshunoslikning fan sifatidagi xususiyatlari, til, lahja va shevalarning hududiy tarqalishi, ularga xos sifatlar, tasnifi, fonetik, leksik hamda grammatic o'ziga xosliklari, turli dialektlarga oid bir yoki bir necha tillarning hududiy bo'linishlari va tarqalish yo'llari haqida tasavvurga ega bo'lishi ko'zda tutiladi. Magistrant areal lingvistikaning tushunchaviy-terminologik apparatini, hududiy tarqalish xususiyatlarini, tillarning tarqalish ko'laminis tasniflash tamoyillari va usullarini bilishi, ulardan foydalana olish malakasiga ega bo'lishi lozim. Egallangan bilimlar talabaning xarita ma'lumotlarini to'plash va saralash, tahlil va talqin etish, ularning fonetik, leksik hamda grammatic belgilarini farqlash va tavsiflash, til va lahjalarning tarqalish xaritasini tuzish va u bilan ishslash kompetensiyasini egallashiga olib kelishi lozim.

"Areal lingvistika" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- Areal tilshunoslikning fan sifatidagi xususiyatlari, uni boshqa lingvistikaga oid fanlardan farqlab, uning tushunchaviy-terminologik apparatini, muayyan bir

sheva haqida to'liq ma'lumot berish va shevalarni muayyan guruhlarga kiritish, til, lajja va shevalarning hududiy tarqalishi, ularga xos sifatlar, tasnifi haqida **tasavvurga ega bo'lishi**;

- areal lingvistikaning manba, material va qonuniyatlari to'g'risida; til, lajja va shevalarning, shuningdek, o'zbek shevalarining muhim fonetik, leksik hamda grammatik o'ziga xosliklari, turli dialektlarga oid hududiy bo'linishlari va tarqalish yo'llarini farqlay olishi va ularni tushuntirib bera olish darajasida **bilishi**;

- turli metodlarda, ayniqsa, lingvotografiya hamda qiyosiy metod bilan shevalarni o'rganish, muayyan bir sheva, lajja yoki til(lar) haqida to'la ma'lumot berish **ko'nikmalariga ega bo'lishi**;

- areal lingvistikaning hududiy tarqalish xususiyatlarini, sheva, lajja va tillarning tarqalish ko'lamini tasniflash tamoyillari va usullarini bilishi, ulardan foydalana olish, areal lingvistika nazariyasi, metodologiyasi hamda metodikasi muammolarini echishga harakat qilish uchun nazariy hamda amaliy xarakterdag'i material va misollar to'plashi, ularni tahlil qila olish **malakalariga ega bo'lishi kerak**.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-mavzu. Kirish. "Areal lingvistika" fanining maqsad va vazifalari

Kirish. Fanning kelib chiqish tarixi va nazariy mashg'ulotlari mazmuni. Areal lingvistika haqida umumiyligi ma'lumot. Areal lingvistikaning shakllanishi va uning o'rganish tarixi. Fanning asosiy muammolar hamda hozirgi holati. Uning o'zbek tilshunosligida tutgan o'mni. "Areal lingvistika" fanining o'rganish obekti, maqsadi va vazifalari. Fanni o'qitishning vazifalari:

Areal tilshunoslikning o'rganish tarixi va asosiy tushunchalari to'g'risida ma'lumot berish; areal lingvistika sohasi va lingvistik xaritalar bilan ishslash ko'nikmalarini shakllantirish; izoglos (dialektologik xaritada ma'lum bir tilda so'zlashuvchi hududlar chegarasi), uning tarqalishi va tasnifi haqida umumiyligi tushuncha berish; sheva, lajja hamda til va ijtimoiy o'zgarish. Sheva, lajja va tilning lingvistik va geografik tarqalish omillarini o'rganish; til va lajjalarning hududiy kengayishini aniqlash va xaritalashtirish; til va shevalarning geografik kengayishi asosida yuzaga keladigan vibratsion (o'tish) hududining paydo bo'lishi va lingvistik noturg'unlik muammolarini o'rganish; areal lingvistikaning nazariy-metodologik muammolar bilan shug'ullanish kompetensiyasini hosil qilish va rivojlantirish.

2-mavzu. "Areal lingvistika"ning fan sifatida shakllanishi va o'rganilishi

Areal lingvistikaning shakllanishi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'at-it turk" asarida turkiy tillarning so'z boyligi, taraqqiyoti va tarqalish ko'laming ifodalaniishi. A. Navoyt va Z. M. Bobur asarlarida areal lingvistika. G. Vamberiy va rus olimlarining asarlarida areal lingvistika.

3-mavzu. "Areal lingvistika"ning metodologik va metodik asoslari xususida

Areal lingvistikaning metodologik va metodik asoslari xususidagi talqinlari. Bir til yoki o'zaro qo'shni shevalarga mansub lajhalaridagi fonetik, leksik va grammatik hodisalari va ularning taqsimlanishi. Ikki qo'shni lajhalar va tillar orasidagi chegara va ularning kengayish xususiyatlari. O'zbek va qozoq, o'zbek va turkman, o'zbek va qirg'iz, o'zbek va tatar tillari orasidagi munosabatlar. Astasekinlik bilan rivojlanuvchi til davomiyligi tamoyilini aniqlash va tahlil qilish.

4-mavzu. "Areal lingvistika"ning nazariy va metodologik muammolari talqini

Areal tilshunoslikda sheva, lajja va tilning hududiy tarqalishi. Izoglos (dialektologik xaritada ma'lum bir tilda so'zlashuvchi hududlar chegarasi), uning tarqalishi va tasnifi. Tilning paydo bo'lishi, uning hududiy tarqalishi, unga sabab bo'lgan iqtisodiy, siyosiy, etnografik va madaniy omillar. Hududiy yaqin bo'lgan tillar, sheva va dialektlarning o'zaro munosabati va ularning ta'siri tavsifi.

"Areal lingvistika" fanining nazariy va metodologik muammolarining xalq tarixi, til tarixi, xalq og'zaki ijodiyoti, joy nomlari, antroponomilar, etnografiya va nomshunoslik sohalari masalalari bilan kesishuv; matbuotda orfografiya, atamashunoslik masalalarining yoritilishi.

5-mavzu. "Areal lingvistika"ning tadqiqot olib borish usullari

Sheva, lajja va tillarning hududiy tarqalishini ekspeditsiya tashkil etish yo'li bilan o'rganish. Hududiy yaqin tillardagi o'zaro ta'sir doirasi mavjud o'tish zonalari, ya'ni vibratsion zonalarning hosil bo'lishi va lingvistik noturg'unlikning kelib chiqish sabablarini lingvistik jihatlardan tahlil qilish. Tarixiy, qiyosiy tadqiqotlar olib borish natijasida to'plangan ilmiy materiallarni hujjalashtirish va xaritalashtirish metodikasi.

6-mavzu. Sheva, lajja va til(lar) taraqqiyotining hududiy, ijtimoiy munosabatlari

Sheva, lajja va til(lar) taraqqiyotining hududiy, ijtimoiy munosabatlari va ularning hududiy kengayishi to'g'risida. Geografik chegaradosh sheva, lajja va tillar. Areal lingvistikaning etnolingvistika, etnografiya, sotsiolingvistika va tipologiya bilan bog'liqligi.

7-mavzu. Izoglos termini tavsifi va tahlili

Izoglos (dialektologik xaritada ma'lum bir tilda so'zlashuvchi hududlar chegarasi) haqida umumiyligi tushuncha. Uning tasnifi talqini. Madaniy va tarixiy maydon tushunchasi va uning taqsimlanish tamoyillari.

8-mavzu.Tillarning o'zaro ta'siri va o'tish zonalari hududining hosil bo'lishi

Bir-biriga geografik jihatdan yaqin bo'lgan tillar chegarasi, ularning o'ziga xos xususiyatlari. O'tish maydonlarining hosil bo'lishi va ularning mustaqil tillarga bo'lgan ta'sir doirasasi. Sheva, lahja va tillarning o'zaro ta'sir xususiyatlarining lingvogeografik tavsifi. O'tish zonalari hududining hosil bo'lish tamoyillari talqini.

9-mavzu.Ikki til o'tish zonalaridagi o'zgarishlar

Tillarning o'tish zonalari. Bu o'tish zonalarining ikki til ta'sir doirasidagi fonetik va leksik, morfologik va sintaktik o'zgarishlar. Tebranish hududidagi tillarning fonetik belgilari. Tillardagi undosh fonemalar va fonetik hodisalar talqini. O'zaro ta'sir doirasidagi tillarning farq qiladigan ba'zi xarakterli lug'aviy xususiyatlari. Ikki til o'tish zonalarida antonim, onomim, sinonim, ko'p ma'noli, eskirgan, tarixiy so'zlar va neologizmlarning o'ziga xosligi. Ikki til o'tish zonalarida dialektal frazeologiya hamda ularning dialektlararo qo'llanishi. Shuningdek, so'z turkumlari va ularga xos xususiyatlar tavsifi. Sintaksis. Ikki til o'tish zonalarida dialektal sintaksis masalalari. Dialektal sintaksisda so'z birikmasi va gaplardagi o'ziga xosliklar.

10-mavzu. O'zbek tili shevalarini xaritalashtirish muammosi

Atlas xaritalar asosida ma'lum sheva, lahja va tilning tarqalish ko'lamin o'rGANISH. Uning qo'shni tillar bilan yaqinlik darajasi. Areal lingvistik tadqiqotlarda xaritalashtirishda izoglassa, izofonema, izomorfema, izoleksema kabi terminlarning roli masalasi. Hududiy jamoalarning dialektlari bilan bog'ligining muhim muammolari.

IV. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmaya tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilar tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulotlarni bajarish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqola va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, o'tilgan mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash.

Amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- 1.Fanning kelib chiqish tarixi haqida ma'lumot tayyorlash.
- 2.Areal lingvistikaning tadqiq qilinish usullarini tavsiflash.
- 3.O'zbek tili areal lingvistikasi shakllanishini o'rGANISH.
- 4.Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'at-it turk" asarida turkiy tillar taraqqiyoti va tarqalish ko'laming ifodalanishini tavsiflash.

5. Sheva, lahja va til taraqqiyotining hududiy kengayishi. Geografik chegaradosh tillarni qiyosiy o'rGANISH.

6.Atlas xaritalar asosida ma'lum sheva, lahja va tilning tarqalish ko'lamin o'rGANISH.

7.Bir-biriga geografik jihatdan yaqin bo'lgan sheva, lahja va tillar chegarasi, ularning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish.

8.Vibratsion (tebranish) hududiga oid matnlarning fonetik va leksik xususiyatlarini tavsiflash.

9. Vibratsion (tebranish) hududiga oid matnlarning morfologik va sintaktik xususiyatlarini tavsiflash.

10.O'zbek tili areal lingvistikasining xaritasini tayyorlash.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

V. Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilar tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulotlarda yanada boyitishadi. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqola va tezislarni chop etish orqali talabalarining bilimini oshirish, o'tilgan mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash.

Seminar mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

- 1.Fanning kelib chiqish tarixi.
- 2.Areal lingvistika fani muammolarining yoritilishi.
- 3.Areal lingvistikaning tadqiq qilinish usullari.
- 4.Areal lingvistika asoslari.
- 5.O'zbek tilshunosligi areal lingvistikasining o'rGANILISH taraqqiyoti
- 6.Til taraqqiyotida hududiy va ijtimoiy munosabatlar va tillarning hududiy kengayishi
- 7.Izoglos (dialektologik xaritada ma'lum bir tilda so'zlashuvchi hududlar chegarasi) va uning tasnifi.
- 8.Tillarning o'zaro ta'sir xususiyatlari va o'tish zonalari.
- 9.Areal lingvistikada xaritalashtirish.
- 10.Vibratsion (tebranish) hududidagi ikki til ta'sir doirasidagi fonetik va leksik o'zgarishlar.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

VI. Mustaqil ta'limi tashkil etishning shakli va mazmuni

"Areal lingvistika" fanini o'rGANUVCHI talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va tilshunoslikning amaliy masalalarini hal qilishda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra

o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda internet saytlaridan foydalanib referat va ilmiy doklad tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlарини hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tавсиya etiladi:

Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik. Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish. Soha bo'yoca darslik va o'quv ko'llanmalar bo'yicha fanning boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish.

Maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash. Talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan mazkur fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish. Faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish.

Masofaviy (distansion) ta'limni tashkil etish.

Mustaqil ishlar uchun tавсиya etiladigan mavzular:

1. Areal lingvistika haqida umumiylar ma'lumot.
2. Areal lingvistikaning o'zbek tilshunosligidagi o'rni.
3. Areal lingvistika fanining o'rganish ob'ektlari.
4. Areal tilshunoslik va tilning hududiy tarqalishi.
5. Areal lingvistikaning shakllanishi va uning o'rganilish tarixi.
6. Fanning asosiy muammolari hamda hozirgi holati.
7. Izoglos (dialektologik xaritada ma'lum bir tilda so'zlashuvchi hududlar chegarasi), uning tarqalishi va tasnifi.

8. Ma'lum bir tilning paydo bo'lishi, uning hududiy tarqalishi, unga sabab bo'lgan iqtisodiy, siyosiy, etnografik va madaniy omillar.

9. Hududiy yaqin bo'lgan tillarning o'zaro munosabati va ularning ta'siri.

10. Areal lingvistika fani muammolarining tilshunoslikning boshqa sohalari bilan kesishushi.

11. Hududiy yaqin tillardagi o'zaro ta'sir doirasini mavjud o'tish zonalari, ya'ni vibratsion zonalarning hosil bo'lishi. Lingvistik noturg'unlikning kelib chiqish sabablarini tahsil qilish.

12. Tarixiy, tasviriy, kiyosiy tadqiqotlar olib borish natijasida to'plangan materiallarni hujjatlashtirish va xaritalashtirish.

13. Ikki qo'shni lahjalar va tillar orasidagi chegara va ularning kengayish xususiyatlari. Asta-sekinlik bilan rivojlanuvchi til davomiyligi tamoyilini aniqlash va tahsil qilish.

14. O'zbek tili areal lingvistikasining shakllanishi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lugatit turk" asarida turkiy tillar taraqqiyoti va tarqalish ko'lami.

15. Til taraqqiyotining hududiy kengayishi. Geografik chegaradosh tillar.

16. Areal lingvistikaning etnolingvistika, sotsiolingvistika va tipologiya bilan bog'liqligi. Madaniy va tarixiy maydon tushunchasi va uning taqsimlanish tamoyillari.

17. O'tish maydonlarining hosil bo'lishi va ularning mustaqil tillarga bo'lgan ta'sir doirasasi. Atlas xaritalar asosida ma'lum tilning tarqalish ko'lamini o'rganish. Uning qo'shni tillar bilan yaqinlik darajasi.

18. O'zaro ta'sir doirasidagi sheva, lahja va tillarning farq qiladigan ba'zi dialektal frazeologiya hamda uning dialektlararo qo'llanishi. O'zaro ta'sir doirasidagi tillarning so'z turkumlari va ularga xos xususiyatlari.

19. Tebranish ta'sir doirasidagi sheva, lahja va tillarda sintaksis. Ulardagi so'z birikmasi va gaplarning o'ziga xosliklari.

20. Tebranish hududidagi tillarning fonetik belgilari. Tillardagi undosh fonemalar va fonetik hodisalar talqini.

21. O'zaro ta'sir doirasidagi tillarning farq qiladigan ba'zi xarakterli lug'aviy xususiyatlari: antonim, omonim, sinonim, ko'p ma'noli, eskirgan, tarixiy so'zlar va neologizmlarning o'ziga xosligi.

Izox: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tавсиya etiladi.

VII. Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
2. Тўйчибов Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. - Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 2004.
3. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. - Toshkent: 2016.
4. Enazarov T., Karimjonova V. va boshqalar. O'zbek dialektologiyasi. -Toshkent: Universitet, 2012.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent : O'zbekiston, 2017.
6. Aliev A. Yu., Nazarov K. N. O'zbek tilining mahalliy shevalari bo'yicha material to'plovchilar uchun metodik qo'llanma. - Toshkent: 1976.
7. Ареалные исследования в языкоznании (отв. ред. Толстой Н.И.). - Л., 1983.
8. Баскаков Н. А. Задачи составления тюркских ареальных исторических диалектологических атласов // Советская тюркология. 1982. Вып. 3. С. 3-9.
9. Begaliev M. D. O'zbek tilining Qorabuloq shevasi Ieksikasi. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007.
10. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбеко язычного массива. - Тошкент: 1991.
11. Jo'raev B. O'zbek adabiy tili va dialektlari. - Toshkent: Fan, 1963.

- 12.Murodova N. O'zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi.
 - Toshkent: Fan, 2005.
- 13.Nafasov T. Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari. - Toshkent: Muxarrir, 2011.
- 14.Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. - Toshkent: O'qituvchi,1996.
- 15.Reshetov V.V. O'zbek dialektlarini monografik o'rganish // O'TA.1960.
 1-soni.
- 16.Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi.
 - Toshkent: O'qituvchi, 1962.
- 17.Решетов В.В. О диалектной основе узбекского литературного языка // Вопросы языкознания. - Москва, 1955.
- 18.Reshetov V.V. O'zbek shevalarining klassifikatsiyasi // O'TA, 1966.
- 19.Shoabduraxmonov Sh.Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalk shevalari.
 - Toshkent: O'qituvchi, 1962.
- 20.Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? - Toshkent: Fan, 1981.
- 21.Shoimova N. Qashqadaryo o'zbek qipchoq shevalari leksikasi. - Qarshi:
 Nasaf, 2000.
- 22.O'zbek dialektologiyasidan materiallar.1-qism. - Toshkent: Fan, 1957.
- 23.O'zbek dialektologiyasidan materiallar. 2-qism. -Toshkent: Fan, 1960.
- 24.O'zbek shevalari morfologiysi. - Toshkent: Fan, 1984.
- 25.O'zbek shevalari leksikasi. - Toshkent: Fan, 1966.
- 26.O'zbek shevalari leksikasi. - Toshkent: Fan, 1991.
- 27.Комарова З. И. Методология, метод, методика и технология научных исследований в лингвистике: учебное пособие. М., 2012
- 28.Стернин И. А. Контрастивная лингвистика. Проблемы теории и методики исследования.М., 2007.
- 29.Ареалные исследования в языкоzнании (отв. ред. Толстой Н.И.). - Л., 1983.
- 30.Лингвистический энциклопедический словарь. - М., 2002.
- 31.Макаев Э.А. Проблемы индоевропейской ареалной лингвистики. - М., -Л., 1964.

Internet saytlari

- 1.<http://www.ut.uz/eng/today/europe recognizes her discovery.mgr>
- 2.<http://www.uzbekistan.be/press-releases/14-2008.html# 6 SOCIETY>
- 3.<http://www.sfs.unituebmgen.de/~lothar/lexbuch/Seminar01/skripte/onomasio.html>
- 4.<http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/lingl 1.pdf>
- 5.<http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>